

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA GULRUXSOR NURMATZOD**

**O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHNING ILMIY-  
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

<b>Ergasheva Gulruxsor Nurmatzod</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish.....	<b>3</b>
<b>Ergasheva Gulruxsor Nurmatzod</b> Совершенствование научно-методических основ преподавания узбекского языка как иностранного .....	<b>23</b>
<b>Ergasheva Gulrukhsor Nurmatzod</b> Improving the scientific-methodical foundations of teaching Uzbek as a foreign language .....	<b>45</b>
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	<b>49</b>

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA GULRUXSOR NURMATZOD**

**O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHNING ILMIY-  
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped1687 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi <https://tdpu.uz/>, [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz) va «Ziyonet» Axborot ta‘lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Adilova Saodat Abdiraximovna,  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Rasmiy opponentlar:** Hamroev Alijon Ro‘ziqulovich  
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullaeva Shaxzoda Abdullaevna  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 27-04 soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-80-86; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (178 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86); faks: (+99871) 276-76-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil "14"-04 kuni tarqatildi. (2023- yil 14"-04 da 211 -raqamli reyestr bayonnomasi).

  
Z.N. Mamarajabova  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G. Isyanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.n.dotsent

S.S. Bulatov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida til o'rganish va o'rgatishning kreativ modellari va kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Shu bilan birgalikda CEFR (The Common European Framework of Reference for Languages) tomonidan til o'rganishning kommunikativ, integrativ yondashuvlari bo'yicha ham yirik loyihalar amalga oshirish bo'yicha muhim ishlar olib borilmoqda. O'zbek tili va madaniyati markazlarining faoliyatini tubdan isloh qilish, xorijdagi o'zbek tili maktablari faoliyatini rivojlantirish, vatandoshlar va ularning farzandlari o'zbek tili va madaniyatini saqlab qolishlarining ilmiy- metodik va amaliy asoslari takomillashtirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida xorijiy tilni o'qitish, o'rgatish va baholash, xorijiy til o'rgatish kompetensiyasini rivojlantirish, samaradorligini oshirish, interfaol ta'limni mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, kompyuter lingvodidaktikasini rivojlantirish, til portfoliosi texnologiyasini ta'lim amaliyotiga ommalashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitilishi jarayonini moderinizatsiyalashni, o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini o'zbek madaniyatiga hamohang tarzda rivojlantirish bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda xorijiy tilni o'qitish, davlat tilining nufuzini oshirish, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini takomillashtirishning, me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "O'zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirish, o'zbek tili ta'limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an'ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan g'ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash"<sup>1</sup> ga oid ustivor vazifalari belgilandi. Bu esa o'zbek tilining kompyuter tiliga aylanishi, dunyo tillaridan biriga aylanishi imkoniyatini kengaytirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-sonli farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, bu boradagi ishlarning yanada jadallashishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur faoliyatga tegishli va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish" nomli ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 20.10.2020 йилдаги ПФ-6084-сон. <https://lex.uz/docs/-5058351>

### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Respublikamizda chet tilni o'qitish metodikasini takomillashtirish ilmiy - metodik masalalar V.Andriyanova, J.Jalolov, L.Axmedova, G.Mahkamova, O'.Hoshimovlar; rus guruhlarida o'zbek tilini o'rgatish R.Yo'ldoshev, X.Muhitdinova, S.Adilova, G.Rixsiyeva, G.Asilova, F.Qodirova, G.Ahmedova, G.Ahrorova, N.Bekniyazova, M.Jo'raev, L.Mirjalolov, Q.Xusanboeva, R.Niyozmetova, D.Toshxo'jaeva, M.Qoraxo'jaeva, G.Qurbonovalar; o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish A. Rafiev, Z.Salisheva, J. Eltuzarov, A.Mashrabbekovalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDH davlatlarida xorijiy til o'qitish bo'yicha L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev V.A.Artemova, B.A.Belyaeva, V.S.Setlin, A.A.Mirolyubovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorij olimlari L.Klark, M.Korotkov, A.Sjober, B.Ingeborg, A.Durdu, Sh.Taslem, T.O'zturk, A.O'z O'zjan tomonidan o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish tadqiq qilingan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.(2020-2022 yy.)

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish samaradorligining pedagogik-psixologik jarayonlarini takomillashtirish;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatish jarayonlarining takomillashtirish metodlarini ishlab chiqish;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda til bilish ko'nikmalari baholash me'zonlarini takomillashtirish, ;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish modelini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish jarayonidir, Toshkent davlat agrar universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida olib borilgan jarayonlarda 548 nafar talabalar ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, integrativ, struktural va statistik tahlil, so'rovnomalar o'tkazish, kuzatish, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil va natijalarni tahlil qilish kabi bir qator metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish samaradorligi oddiy ma'lumotlarni A1 darajada yetkazib berish ko'nikmalarini, nutqiy talaffuz sofligini shakllantirish va

leksik-grammatik savodxonlik qoidalariga barqaror rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish asosida takomillashtirilgan;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganish jarayoni o'z fikrini erkin bayon eta olishi, o'zbek tilidagi iboralardan to'g'ri foydalana olishi, izchillikda matn tuza olishi, suhbatdoshga javob qaytara olish imkoniyatlarini B1 va B2 daraja talablariga sinxronlashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishni takomillashtirish modeli ijtimoiy munosabatlarda va turli nutqiy vaziyatlarda boshlang'ich darajada o'rganish intensivligi matnni anglash va qayta ishlahga ustuvorlik berish, tilining leksik-grammatik vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanish traektoriyasining dinamikligini ta'minlash hamda kognitiv-pragmatik yondashuvdan foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishni takomillashtirishni baholash mezonlari Hind-Yevropa tillari vakillarini alohida guruhda o'qitish, turkiy xalqlarda umumiy tasavvurlar va grammatik o'xshashliklar mavjudligini inobatga olish hamda o'rta darajadan boshlab barcha o'rganuvchilarni baravar o'qitish amaliyotini joriy etish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning A,B,C darajalari bo'yicha nazariy asoslari ishlab chiqilgan va shu asos bo'yicha har bir darajaga oid o'qitilishi zarur bo'lgan tizimlashtirilgan mavzular mazmuni yaratilgan;

o'zbek tilini xorijiliklarga o'qitishning A1, A2 darajalariga oid xalqaro standartlarga to'la javob bera oladigan "O'zbekona" o'quv qo'llanmasi yaratilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

xorijdagi o'zbek tili markazlari, o'quv muassasalarida o'zbek tilini o'rgatish maqsadida boshlang'ich va o'rta daraja uchun dasturlar tayyorlab berilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

CEFR asosida o'zbek tilini xorijiy til sifatida har bir ko'nikmani alohida va umumiy baholash tizimi ishlab chiqilgan;

masofadan turib o'zbek tilini o'rganuvchi katta yoshdagilar uchun "O'zbekona" platformasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ishda qo'llanilgan yondashuv va tamoyillar, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, muammo yuzasidan respublikamizdagi hamda xorijiy olimlarning g'oyalariga, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyat o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asosi ishlab chiqilganligi, o'zbek madaniyatini hamda o'zbek tilidagi ma'lumotlarni A1, A2 darajada yetkazib berish leksik grammatik ko'nikmalarni shakllantirish, B1. B2 darajada oid asoslarni ishlab chiqish hamda o'zbek tilini o'rganuvchilarning til egallash kompetentligi

rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati integrativ yondashuv asosida katta yoshdagi til o'rganuvchilarga til o'rganishning boshlang'ich, o'rta va yuqori darajasi uchun tizimlilik asosida dastur yaratilganligi, o'zbek tilini masofaviy o'rganish uchun imkoniyatlar yaratilganligi, o'zbek tilini xorijiy til sifatida har bir ko'nikmani alohida va umumiy baholash tizimining ishlab chiqilganligi, boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilar uchun darslik yaratilganligi va mashqlar tizimi takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy - metodik asoslarini takomillashtirish asosida:

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish samaradorligi oddiy ma'lumotlarni A1 darajada yetkazib berish ko'nikmalarini nutqiy talaffuz sofligini shakllantirish va leksik-grammatik savodxonlik qoidalariga barqaror rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-apreldagi 02-07-1104/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etish imkoni kengaytirilgan;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganish jarayoni o'z fikrini erkin bayon eta olishi, o'zbek tilidagi iboralardan to'g'ri foydalana olishi, izchillikda matn tuza olishi, suhbatdoshga javob qaytara olish imkoniyatlarini B1 va B2 daraja talablariga izchil sinxronlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 - yil 3-apreldagi 02-07-1104/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini oshgan;

o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishni takomillashtirish modeli ijtimoiy munosabatlarda va turli nutqiy vaziyatlarda boshlang'ich darajada o'rganish intensivligi matnni anglash va qayta ishlahga ustuvorlik berish, tilining leksik-grammatik vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanish traektoriyasini dinamikligini ta'minlash hamda kognitiv-pragmatik yondashuvdan foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023- yil 3- apreldagi 02-07-1104/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning A1, A2, B1, B2. darajadagi izchillik asosida o'quv resurslarini yaratish imkoni kengaytirilgan;



o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishni takomillashtirishni baholash mezonlari Hind - Yevropa tillari vakillarini alohida guruhda o‘qitish, Turkiy xalqlarda umumiy tasavvurlar va grammatik o‘xshashliklar mavjudligini inobatga olish hamda o‘rta darajadan boshlab barcha o‘rganuvchilarni baravar o‘qitish amaliyotini joriy etish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar YOA-1-22 raqamli “Fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-apreldagi 02-07-1104/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish modelini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mazmuniga doir maqola va tezislar bilan 2ta respublika hamda 2ta xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 121 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning ilmiy - nazariy asoslari**” deb nomlanuvchi birinchi bobida, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning nazariy asoslari va joriy holati, o‘zbek tili o‘rganuvchi xorijliklarning etnik tarkibi va yosh xususiyatlari, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning pedagogik-psixologik tavsifi tadqiq etilgan.

Dunyoda xorijiy til o‘qitish tarixi uch davrga bo‘linadi: qadimgi davr, ilk zamonaviy Yevropa davri, 19 asr boshi va 20 asr o‘rtalaridagi davr.

XIX- asrning oxiri va XX - asrning boshlariga kelib metodistlarni “Eng yaxshi til o‘qitish metodi qaysi?” degan savolga qizishlari bir nechta til o‘rgatish metodlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi va quyidagi metodlar xorijiy til o‘qitish ta’limiga kirib keldi:

Tarjima metodi: nomidan ko‘rinib turganidek bir tildan ikkinchi qilga tarjima qilish orqali til o‘rgatiladi. Bu metod ikki qismdan iborat: grammatik tarjima, matn

tarjima. Grammatik tarjima orqali mantiqiy fikrlashga undasa, matn tarjimasini aqliy rivojlanishini ta'minlashdan iborat bo'lgan.

Tarjimasiz metod. Bu metodning asosiy maqsadi o'rganilayotgan til muhitini yarata olish, ya'ni bu metodda xorijiy tilni o'rganish ona tilini o'rganishga o'xshash bo'lishi kerak, kundalik mavzularda gapirishni o'rgatish orqali yozish va o'qib tushunishni o'rgatish mumkin degan g'oyaga tayangan. Bu metodni ham ikki yirik guruhga ajratish mumkin: to'g'ri metod, tabiiy metod.

Aralash metod. Ta'limni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar davom etarkan, yuqoridagi metodlar xorijiy til o'rgatishda kutilgan natijani bermasligi ko'rinish boshlandi. Natijada ikki, uch metodli omixtalashtirgan holda til o'qitish boshlandi.

Qiyosiy metod. To'liq nomi ongli - qiyosiy metod deb ataladi. Shcherba tomonidan asos solingan bo'lib, bunda ona tili va o'rganilayotgan xorijiy til qiyoslanib o'rgatiladi.

Yuqoridagi metodlar hozirgi kunda yangi metodlar uchun "xamirturush" vazifasini bajarmoqda. Bugun dunyoning qaysi nuqtasiga bormang o'zbeklarni uchratish mumkin. O'zbekistondan borib chet davlatlarda yashab qolayotgan oiladalarda dolzarb muammolardan biri farzandining yashayotgan davlati tilini o'zlashtirish va shu tilda so'zlashib, o'zbek tilini unutib qo'yayotgani yoki umuman gapirmayotganligidir. Bunga ham bir necha sabablar bor: yashayotgan davlati tilini mukammal o'rganish maqsadida shu davlatning rasmiy tilida doimiy so'zlashish; o'zbek tili muhitidan uzoqlashish; o'zbek tilida so'zlashish zaruratining yo'qligi; o'zbek tilini o'rganishi uchun manbalarning yetarli emasligi.

O'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish zarurati turkologiya yo'nalishi va O'rta osiyoshunoslik yo'nalishi mavjud bo'lgan xorijiy ta'lim muassasalarida o'rganishga bo'lgan talabning oshishi natijasida paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda o'zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'qitish mavjud manbalari aniqlangan. Mavjud manbalarda o'zbek tilini kompleks o'qitish, til o'qitishning suhbatdoshga javob qaytara olish imkoniyatlarini B1 va B2 daraja talablariga sinxronlashtirish, o'zbek tilining leksik-grammatik vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanish traektoriyasini dinamikligini ta'minlash, til o'qitishning tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat qaratilmagan. Mavud manbalar tilni grammatik nuqtayi nazardan yoki leksik nuqtayi nazardan o'qitishga qaratilgan.

Hozirgi kunga qadar o'zbek tilini rus guruhlar va xorijliklar uchun o'qitishda manba sifatida foydalanilgan. Biroq bugungi kunda o'qitishning tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan dastur va darsliklar yaratilishi muhimdir.

Bundan tashqari, bobda xorijdagi o'zbek tili maktablari va xorijiy davlatlardagi o'zbek tili kurslari hamda yo'nalishlari, o'qitish uslubi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'rganuvchining yosh xususiyatlari, qabul qilish jarayoni, uni miyada qayta ishlash va ifodalash jarayonlari ham zaruriy omillardandir. Ta'lim jarayonining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyat va ahamiyat kasb etganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilini o'rganuvchilarning etnik guruhlarini quyidagicha tasniflash va o'qitish maqsadga muvofiq: o'zbek tili muhitida o'zbek tilini o'rganuvchi turli millat

vakillari. O‘zbek tili muhitidan tashqarida o‘zbek tilini o‘rganuvchi turkiy til egalari.

O‘zbek tili muhitidan tashqarida o‘zbek tilini o‘rganuvchi turkiy til vakillari bo‘lmagan xorijliklar.

Dissertatsiyada har bir etnik guruhning o‘ziga xosligi, o‘qitishda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar ochib berilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganuvchilarning yosh xususiyati ularning til o‘rganishida muhim omil vazifasini bajaradi. Xorijiy til o‘qitish bo‘yicha mutaxassislar til o‘rganuvchilar guruhini 4 - 7 yoshdagilar, 8 - 15 yoshdagilar, 16 yosh va undan kattalar kabi ajratishadi.

O‘zbek tilini Amerika Qo‘shma Shtatlarining Nyu-York shahridagi “Ziyo Art” maktabida o‘qitish jarayonida bolalar ta’limini 3 guruhga: 6-8 yosh, 9-12- yosh, 13-15 yosh kabi guruhga bo‘ladilar.

Yuqorida CEFR bo‘yicha xorijliklarning yosh tasnifi, “Ziyo-art” maktabidagi o‘rganuvchilarning yosh xususiyatlari va tasnifi keltirilgan. So‘nggi yillarda o‘zbek tilini o‘rganish istagidagilar auditoriyasini tajribalarimiz asosida yosh nuqtai nazardan quyidagicha tasniflashni joiz deb topdik: maktab yoshidagi xorijliklar (Xorijiy fuqarolarning farzandlari, xorijda yashovchi v vatandoshlarimizning farzandlari); xorijlik o‘zga tilli katta yoshdagi vatandoshlar; maktab yoshidagi turkiy til egasi bo‘lgan qardoshlar; katta yoshdagi qardoshlar; katta yoshdagi xorijliklar.

O‘tkazilgan tajribalarimizda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilarning yosh guruhlarini quyidagicha tasnifladik: 6 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan o‘rganuvchilar; 10 yoshdan 15 yoshgacha o‘zbek tilini o‘rganuvchilar; 16 yosh va undan katta yoshdagi o‘zbek tilini o‘rganuvchilar (asosan ta’lim, biznes, sayohat, qiziqish, maqsadli faoliyatni amalga oshirish uchun o‘rganuvchilar).

Olti yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan til o‘rganuvchilar uchun o‘yin, suxbat va ko‘rgazmali metodlar faol qo‘llaniladi. Bolalar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishda so‘zlarni musiqa yordamida yodlatish, multfilmlar va rolli o‘yinlar yaxshi samara beradi.

O‘n yoshdan o‘n besh yoshgacha til o‘rganuvchilar aynan maktab ta’limi jarayonida bo‘lganliklari sababli integrativ yondashuvdan foydalanish maqsadga olib boradi. Albatta, bu vaqtda o‘qituvchi uchun katta mas’uliyat va mahorat zarur. Til o‘rgatuvchi o‘rganuvchilarining shu paytgacha nimalarni bilishi tasavvurlari va dunyoqarashi haqida ma’lumotga ega ekanligi unga qo‘l keladi.

O‘n olti yoshdan ellik besh yoshgacha bo‘lgan til o‘rganuvchilar uchun beriladigan materiallarda yosh jihatdan chegaralarning yo‘qligi, taqdim etish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning ko‘pligi va o‘ziga xos keng dunyoqarashga ega auditoriyaning mavjudligi qo‘l keladi. Madaniyatlararo muloqotga kirish nisbatan oson va natijali. Shu bilan bir qatorda ularning kognitiv, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda til o‘rgatish katta yoshlilar ta’limiga nisbatan qiziqarli va osonroq “Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to‘xtovsiz o‘sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miya faoliyati to‘liq shakllanib bo‘lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma’lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni

rejalashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi". Androgogik ta'lim esa kognitiv bilim va tajribalarga suyanilgan holatda samarali natijani ko'rsata oladi.

Andragogik ta'lim bo'yicha til o'rganuvchilar soni oxirgi yillarda sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunda o'zbek tili an'anaviy, onlayn (masofaviy) gibrid shaklda o'rgatilmoqda.

Andragogik ta'limning bosh maqsadi shaxsning, nafaqat, kasbiy balki, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir. "Mazkur ta'lim turida pedagogik jarayon subyektlarining qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan holda tashkil etiladigan jarayon hisoblanib, unda ta'lim maqsadlarining xususiy darajasi hamda bilimlarni o'zlashtirishning amaliy jihatlarini hisobga olish birlamchi mezon sanaladi.

"Andragogika" atamasi ilk marotaba 1833-yilda nemis o'qituvchisi Aleksandr Kapp tomonidan Platonning ta'lim nazariyasini tasvirlash uchun yaratilgan. (Davenport, 1985). 1970-yillarda Malkolm Nouz (1973, 1980) "andragogika" atamasini ommalashtirgan va "kattalarga o'rganishiga yordam berish san'ati" deb atagan. Uning fikricha, andragogik ta'lim 2 ta muhim farazga ega: O'z-o'zini boshqarish, o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi o'zaro hamkorligi.

Andragogik ta'limni tashkil etish qator omillarni hisobga olishni talab etadi: "auditoriyaning ijtimoiy portreti"ni oldindan to'g'ri prognoz qilish, auditoriyadagi qatnashchilarning qiziqishlari, mavjud tajribasi, intellektual salohiyatini to'g'ri baholay olish; qatnashchilarning ehtiyojlariga asoslangan holda fan, soha va mavzuga oid axborot-malumotnoma bazasini shakllantirish; pedagog-andragog (andragogik ta'lim bilan shug'ullanuvchi shaxs) o'quv mashg'ulotlari jarayonida "fasilitator" (faollashtiruvchi, yordamchi) rovida harakat qilishi va asosiy e'tiborni qatnashchilardagi mavjud kasbiy kompetentlik darajasini ularning mehnat tajribasi, o'quv-bilish motivatsiyasi hamda bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan kelib chiqib rivojlantirish maqsadiga yo'naltirish; o'quv jarayonining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash, xususan, qatnashchilarning mehnat tajribasi, ijtimoiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarini tanlash hamda hamkorlikdagi erkin-ijodiy ta'lim muhitini yaratish va h.k. Xorijiy tilni o'rganish jarayonining didaktik, metodik, psixologik tasirlar asosida kechishi tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan. Bu prinsiplarga lingvistik prinsipni ham qo'shish maqsadga muvofiq chunki, didaktik, metodik va psixologik prinsiplarning yuzaga chiqishida lingvistik omillarning o'zni beqiyos, hattoki lingvistik prinsipsiz qolgan uchta prinsip amalga oshmaydi desak ham xato bo'lmaydi. Til o'rganish axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayoni o'ziga xos psixologik, fiziologik jarayonlar asosida amalga oshadi. Bu amallarning natijasini esa lingvistik prinsip namoyon etadi. Ammo bu barcha prinsiplarni umumlashtirib turgan narsa – motivatsiya. Bizningcha, andragogik ta'lim uchun motivatsiya muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham, yuqoridagi prinsiplar qatoriga motivatsion prinsipni ham qo'shish o'rinli.

Andragogik ta'limda o'zbek tilini o'qitishning muvaffaqiyatini belgilovchi qator omillar mavjudki, o'qitish jarayonida bu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

Amaliy hayotiy tajribaga egalik, yuqori motivatsion yo'nalganlik, ijtimoiy intellektning barqarorligi, til o'rganishga ijobiy munosabatning mavjudligi.

Kattalar ta'limi bilan shug'ullanishga kirishgan o'qituvchi quyidagi pedagogik-psixologik jihatlarga alohida e'tibor qaratmog'i lozim: do'stona o'zaro hurmat ruhidagi muhitni yaratish; o'rganilishi zarur bo'lgan materiallarni o'zaro hamkorlik va birgalikda ishlash orqali amalga oshirish; til o'rgatishda foydalaniladigan metod va materiallarning o'rganuvchining aniq maqsadiga xizmat qilishi; til o'rgatish rejasi bilan tanishtirish va doimiy natijani ko'rsatish; mashg'ulotlardan tashqari hamkorlik asosida muloqot qilish muhitini shakllantirish.

Xorijliklarga integrativ yondashuv asosida o'zbek tilini o'qitishda o'rganuvchilarning yosh xususiyati, psixologik holati inobatga olinadi. Shu bilan bir qatorda, ularning o'zbek tili muhitiga tezroq kirishlari uchun zamin yaratish talab etiladi. Odatda xorijliklar uchun tashkil etilgan 1- darsning o'zida muloqot uchun zarur bo'lgan birliklarni o'rgatib olish zarur. Shunda o'zbek tili muhitiga kirish osonlashadi va o'rganishga bo'lgan motivatsiya oshadi. Masalan:

### 1- jadval

#### A1 daraja 1- 2- darslarda o'rgatiladigan so'zlar

Tushudingizmi?	Ha, tushundim Yo'q, tushunmadim
Savolingiz bormi?	Ha,/ ha, bor Yo'q
Turing, o'tiring, ayting, yozing, takrorlang	
Rahmat, kechirasiz.	
Sekinroq ayting, iltimos.	
Yaxshi.	
“ “ so'zi o'zbek tilida qanday bo'ladi?	

Bu esa ikkinchi, uchinchi darslardan boshlab vositachi tildan kamroq foydalanib dars o'ta olish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari, bu faslda til o'rgatish jarayonida umumdidaktik va maxsus-metodik prinsiplar, ularning turlari, o'ziga xosliklari misollar orqali izohlab berilgan.

Dissertatsiyaning «**O'zbek tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda integrativ yondashuvning didaktik mazmuni hamda mavjud adabiyotlar tahlili, andragogik ta'limda onlayn platformalardan foydalanish (“O'zbekona” misolida), andragogik ta'limda o'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklar uchun metodik ta'minot yaratish masalalari tadqiq etilgan. Unda o'zbek tilini xorijiy til sifatida integrativ o'qitishning mazmuni, xususiyatlari, integratsiya, fanlararo qatlamlar haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning oldingi va hozirgi holati hamda bu jarayonda bevosita va bilvosita foydalanilayotgan darslik va qo'llanmalar xususida fikr yuritilgan. Shu maqsadda

o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida foydalanilgan darslik va qo‘llanmalarning ba‘zilarini tahlilga tortilgan. Integrativ yondashuv asosida yaratilgan “O‘zbekona” darsligidagi mashqlarning maqsadlari tushuntirilgan. Darslikning A1 bosqichga mo‘ljallangan qismi hamda uning uzviy davomi sifatida yaratilgan A2 kitobining mohiyati har bir ko‘nikmani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan mashq hamda topshiriqlar tavsifi, o‘zbek madaniyatini o‘rgatish usullari hamda metodlari, nutq materiallarini o‘rgatish metodlari tadqiqi bayon etilgan. O‘zbek tilini o‘qitishda doir mavjud manbalar va “O‘zbekona” darsligi sinxronlashtirilgan hamda ijtimoiy munosabatlarda va turli nutqiy vaziyatlarda boshlang‘ich darajada o‘rganish intensivligi, matnni qabul qilish va qayta ishlash, tilning leksik-grammatik vositalaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish traektoriyasining dinamikligini ta‘minlash, kognitiv-pragmatik yondashuvdan foydalanishga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan.

O‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatish uchun mo‘ljallangan “O‘zbekona” darsligida quyidagi mashqlardan foydalanilgan.

## 2- jadval

### A2 darajada uchun “O‘zbekona” darsligida foydalanilgan mashqlar

Lug‘at:	O‘qib tushunish:	Grammatika:	Tinglab tushunish:	Gapirish:	Yozish:
Rasmni so‘zlar bilan to‘ldiring. Tinglang, takrorlang va tekshiring. So‘zlarni moslang va birikmalar tuzing Rasm asosida gaplarni to‘ldiring.	Savollarga javob bering Matnni o‘qing (mavzuga mos savol) O‘qing va taqqoslang To‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni belgilang. Antonim/ sinonim so‘zlarni belgilang\moslang Matndan foydalanib... ni tasvirlang Ajratilgan\ostiga chizilgan... so‘zlarni ma’nolari bilan \rasmlar bilan moslang.	Mos qo‘shimchalarni qo‘ying. Mazmunga mos bo‘lgan so‘zlarni qo‘ying___ dan foydalaning. Davom ettiring. Jadvalni to‘ldiring. So‘zlar ishtirokida birikmalar tuzing. ... dan foydalaning. Noto‘g‘ri qo‘llanilgan qo‘shimchalarni toping va to‘g‘rilang. Gaplarni to‘ldiring.	Tinglang va mos rasmlarni belgilang. Tinglang va bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring. Qayta tinglang va to‘g‘ri javobni belgilang. Kommunikativ mashq.	Savollarga javob bering. Mos so‘zlarni belgilang. Nutqimizni boyitamiz. Suhbatlarni to‘ldiring. Juftlikda ishang. Do‘stingizdan so‘rang. Rasmni tasvirlang. Rasmga qarab hikoya tuzing.	Matndan --- ta xatolikni toping. Tinglang va yozing (so‘z diktant) (Grammatik mavzuga oid)larni toping. Namuna beriladi va shu asosida matn yozing, hujjat namunasini yarating. Jadvalni to‘ldiring, savollarga javob yozing... Esse yozing Matn tuzing.

Ushbu berilayotgan topshiriqlar darsning mavzusiga qarab davom etishi yoki o‘zgarib borishi mumkin. Ammo “mashq peshlavhasi”ning aniq qolipga solinishi o‘quvchilar uchun qulaylik tug‘dirish bilan bir qatorda til o‘rganish

samaradorligining oshishi uchun ham xizmat qiladi. O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib borayotgan ushbu vaziyat mutaxassislar oldida chet elliklar uchun zamonaviy talablarga mos ravishda til o‘rgatishga yo‘naltirgan onlayn platforma yaratish vazifasini qo‘ymoqda.

Internet tarmog‘ida

<https://www.teachaway.com/teach-in-uzbekistan>,


<https://languageliveschool.com/en/land/learn-uzbek-language-via-skype/>,

<https://teachyourselfuzbek.com/>, <https://www.justlearn.com/uzbek-tutors>,

<https://en.amazingtalker.com/apply-to-teach/uzbek>, va boshqa saytlarda

o‘zbek tili so‘zlashuv uslubida qo‘llaniladigan ayrim so‘zlarning tarjima lug‘atlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Biroq saytlardagi bu ma‘lumotlar til o‘rganuvchida O‘zbekiston haqidagi tasavvurni paydo qilish va til muhitiga kirishi uchun yetarli darajada emas.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va vazifalarni amalga oshirish maqsadida androgogik yoshdagilar uchun MO‘TUL jamoasi tomonidan 2021- yilda [www.uzmotul.com](http://www.uzmotul.com) sayti yaratildi. Sayt til o‘rganishning barcha darajalarini qamrab olgan bo‘lib, xorijliklar uchun qulay va keng imkoniyat yaratib beruvchi 8ta asosiy yacheykadan tashkil topgan.



1-rasm. “O‘zbekona” platformasining asosiy oynasi

1. Darajalar. Bu yacheyka 3 ga bo‘lingan: A, B, C.

A - bu boshlang‘ich daraja. A1 daraja - til o‘rganuvchi aniq maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan iboralarni tushunadi va o‘z nutqida qo‘llay oladi; o‘zini tanishtira oladi, oila a‘zolari, do‘stlari va boshqalarni tanishtira oladi, yashash manzili, tanishlari, sevimli mashg‘uloti va o‘zi haqida ma‘lumotlarni bera oladi. Shunga oid savollarga javob bera oladi. Suhbatdoshi sekinroq gapirsa, tushunadi va savollarga javob bera oladi. “O‘zbekona” platformasida boshlang‘ich darajadagi darslar uchta bosqichga bo‘lingan,

A1, A1+, A2. A1 bu qism o‘zbek tilini “nol”dan o‘rganuvchilar uchun baza yaratishga xizmat qiladi. Bu yacheykada til o‘rganuvchi quyidagi mavzular bilan tanishadi: “Alifbe”, “Salomlashish”, “Xayrlashish”, “Kishilik olmoshlari”, “Raqamlar”, “Vaqt”, “Bu, u, shu”, “Ranglar”, “Mevalar”, “Hayvonlar”, “Mening yoshim”.

B1- daraja uchun. “O‘zbekona” platformasi andragogik yoshdagi xorijliklar, qardoshlarga o‘zbek tilini o‘rganish uchun qator imkoniyatlarni yaratib beradi: istalgan joyda, istalgan vaqtda o‘rganish imkoniyati; xohlagan til darajasini o‘rganish imkoniyati; tizimli til o‘rganish imkoniyatini; mustaqil va autentik manbalarga asoslangan til o‘rganish imkoniyatini; o‘zbek madaniyati, urf - odatlari bilan tanishish imkoniyatini; har bir aspektni chuqurroq yodashuv asosida o‘rganish; universal grammatikani o‘rganish; integrativ yondashuv asosida qiziqarli va oson o‘rganish.

Bundan tashqari, bu bobda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning nazariy xususiyatlari, o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida duch kelinayotgan muammolar ularni bartaraf etish yo‘llari, o‘zbek tilini o‘rgaish jarayonida leksik, grammatik va fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirish haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda, “O‘zbekona” darsligining A1 darajasi va A2 darajasining xususiyatlari ochib berilgan. Til egallashning o‘qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmlarini mashqalar orqali rivojlantirish, madaniyatga oid birliklarni o‘rgatishga doir tavsiyalar va yondashuvlar haqida so‘z yuritilgan.

Dissertatsiyaning **3-bobi “O‘zbek tilini xorijiy til sifatida integrativ yondashuv asosida o‘qitish dasturi va darsligining tajriba-sinov amaliyoti”** deb nomlanadi. Integrativ o‘zbek tili dasturining qardosh til o‘rganuvchilari va xorijlik til o‘rganuvchilar bilan tajriba-sinov amaliyoti jarayoni bosqichlari yoritilgan.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Til kursi”da 2018-2021-yillar davomida amalga oshirildi. Turkiya Respublikasining ta’lim vazirligida 2020-yil oktyabrdan 2021- yil mart oyiga qadar, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida “Qiziqarli o‘zbek tili” kursida 2020-yil noyabrdan 2021- yil dekabr oyiga qadar, Birlashgan Millatlar tashkilotining O‘zbekistondagi “Taraqqiyot” dasturi asosida afg‘on qizlari guruhiga 2021-yil 4-yanvardan 2021- yil dekabr oyigacha, O‘zbekistondagi elchixonona, konsullik vakillari bilan 2020-2021- yillar davomida tajriba - sinov ishlari o‘tkaziladi va xulosalar olindi.



Bu bob doirasida hammualliflikda “O‘zbekona” A1 darsligi va “O‘zbekona” A2 darsligi chop etildi. Darslik xorijiy til o‘qitishning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan bo‘lib, til o‘rgatishning tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zbek madaniyati haqidagi bilimlarni oshirishga ham alohida urg‘u qaratgan. Quyida A1 va A2 darsliklarining dasturi keltiriladi.

		A	B	D	E	F
MAVZU	Darsni boshlaymiz	O‘rganamiz	Lug‘atimizni boyitamiz	Muhim qoida	Suhbatlashaylik	
Alifbe	Harflar		Foydali iboralar	Olmoshlar: men, sen, u, biz, siz, ular		
1 Assalomu alaykum	Tanishuv	Yaxshimisiz?	Davlatlarning nomlari	Egalik qo‘shimchalari. Qayerdانسiz? Qayerliksiz?	Ismingiz nima? Qayerdانسiz?	
2 Raqamlar	Sanaymiz (1-20)	Raqamlar: 20-30, o‘nliklar...	Narsa nomlari	-ta, -inchi	Sening yoshing nechida?	
3 Kim? Nima? Qayer?	Kim, Nima, Qayer	Buyuklar	Kasblar	u, bu, -lar	Bu kim? Bu nima? Bu qayer?	
4 Soat necha bo‘ldi?	Vaqt birliklari	Parvoz jadvali	Paytni ifodalaydigan so‘zlar: bugun, kecha...	Qachon?, Qancha?, -man, -san, -miz, -stz	Kun tartibi	
5 Mamlakatlar va millatlar	Mamlakat, shahar va millat	Joy nomlari	...da joylashgan Shimol, Janub, Sharq, G‘arb	Bu yerda...bor U yerda...bor Shu yerda...yo‘q U yerda...yo‘q Shu yerda...yo‘q	Manzil so‘rash	
6 Men yoqtirgan	Necha pul? Qancha?	Kiyim-kechak	Ranglar	Sifat+Ot Ot+Sifat So‘z birikmasi va gap	...ni yoqtiraman ...ni yoqtirmayman	
7 Ta‘mi mazali	Meva va sabzavotlar	Milliy taomlar	Hisob so‘zlar	Sifat darajalari	Buyurtma berish	
8 Ona tabiat	Hayvonlar	yil, fasl, oy, hafta	Ta‘qiq va buyruq belgilari	Buyruq mayli	Imtihon qoidalari	
9 Transport	Transportlar	Mashinalar haqida. ...da boshlayman. ...da tugataman.	Yo‘nalish nomlari	Shaxs-son	Chipta sotib olish	

2-rasm. A1 darajadagi “O‘zbekona” darsligining kontenti

